O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

Namangan sh. Istiqlol ko`chasi 57.

2024 - yil 7 - mart 121-6-0-Q/24 Namangan viloyati hokimligi

Viloyat hududidan o‘tuvchi xalqaro ahamiyatga molik A-373 “M39 avtoyo‘li Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lining 221-268 kilometrlari oralig‘ida (aholi yashash hududidan tashqarida o‘tgan qismida) yuqori harakatlanish tezligini kamaytirish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 7-noyabrdagi 24/6-2522-sonli taklifiga rozilik berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori 1-ilovasining 80-bandiga muvofiq, Namangan viloyati Pop tumani hududidan o‘tgan xalqaro ahamiyatga molik A-373 “M39 avtoyo‘li Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lining 221-268 kilometrlari oralig‘ida (aholi yashash hududidan tashqarida o‘tgan qismida) yuqori harakatlanish tezligini kamaytirish maqsadida:

- M1 (yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari), M2 (o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 tonnagacha bo‘lgan avtotransport vositalari), N1 (yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5

tonnadan oshmaydigan avtotransport vositalari) toifadagi transport vositalari uchun yuqori harakatlanish tezligi 80 km/soat;

- N2 (yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 tonnadan ortiq bo‘lgan, lekin 12 tonnadan oshmaydigan avtotransport vositalari), N3 (yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 12 tonnadan ortiq bo‘lgan avtotransport vositalari) toifadagi transport vositalari uchun 50 km/soat yuqori harakatlanish tezligi etib belgilansin;

- 3.24 “80, 50 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari “Transport vositasining turi”ni aniqlashtiruvchi 7.4.1 - 7.4.10 qo‘shimcha axborot belgilaridan tegishlisi bilan birgalikda o‘rnatilsin.

3. Pop tumani hokimligi (A.Sultanov) “Qamchiqavtoyo‘l” ichki yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (O.Ne’matov) va Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Sh.Islomov) bilan birgalikda belgilangan muddatda Pop tumani hududidan o‘tgan xalqaro ahamiyatga molik A-373 “M39 avtoyo‘li Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lining 221-268 kilometrlari oralig‘ining aholi yashash hududidan tashqarida o‘tgan qismiga 3.24 “80, 50 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarini “Transport vositasining turi”ni aniqlashtiruvchi 7.4.1 - 7.4.10 qo‘shimcha axborot belgilaridan tegishlisi bilan birgalikda o‘rnatilishini ta’minlasin.

4. Namangan viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (Sh.Islomov) Pop tumani hududidan o‘tgan xalqaro ahamiyatga molik A-373 “M39 avtoyo‘li Guliston-Bo‘ka-Angren-Qo‘qon va Andijon orqali-O‘sh” avtomobil yo‘lining 221-268 kilometrlari oralig‘ining aholi yashash hududidan tashqarida o‘tgan qismiga 3.24 “80, 50 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish davomida harakat xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Mazkur qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Qarordan norozi bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda tegishli vakolatli organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari G‘.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **Sh.Abdurazakov**